



INNOVATIVE
WORLD

ISSN: 3030-3079

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI
TADQIQOTLAR JURNALI

Scientific Journal



www.innoworld.net

+998 33 5668868



ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 3, Issue 3
2025

Journal has been listed in different indexings

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:

www.innoworld.net

Andijon-2025



Raqamli moliyaviy texnologiyalar (fintech) rivojlanishining o'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi roli.

Daminova Farangiz Egamberdi qizi

Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası 3-kurs talabasi

ORCID: 0009-0006-5177-1130

E-mail: farangizdaminova@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Toxirova Nigora Zokirjon qizi**

Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-8490-6027

E-mail: nigora.takhirova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda jadal rivojlanib borayotgan raqamli moliyaviy texnologiyalar va ularning O'zbekiston iqtisodiyotiga sezilarli ta'siri hamda barqaror moliyaviy rivojlanishni ta'minlashdagi roli haqida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birgalikda, O'zbekistonda raqamli moliyaviy texnologiyalar (Fintech) tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning mamlakat iqtisodiy o'sishiga va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, fintech ekotizimining rivojida davlat siyosati, tijorat banklari va xususiy startaplarning o'rnini va istiqbollari ham ko'zda tutiladi. Tadqiqot davomida tizimli, analitik, taqqoslash, sintez va statistik tahlil metodlaridan foydalaniladi. Markaziy bankning yillik hisobotlari, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, hamda UzDaily kabi ishonchli manbalar tahlil qilinadi. Mamlakatda moliyaviy texnologiyalarni joriy etish holati, to'lov tizimlarining rivojlanish yo'nalishlari va ularning iqtisodiy muhitga ta'siri empirik asosda o'rganiladi.

Kalit so'zlar: "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, raqamli moliyaviy texnologiyalar (Fintech), fintech ekotizimi, fintech startaplari, raqamli infratuzilma, to'lov tizimlari, axborot xavfsizligi, moliyaviy barqarorlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются стремительно развивающиеся в настоящее время цифровые финансовые технологии и их существенное влияние на экономику Узбекистана, а также их роль в обеспечении устойчивого финансового развития. Анализируется формирование системы цифровых финансовых технологий (финтех) в Узбекистане, этапы ее развития и их влияние на экономический рост страны и обеспечение финансовой стабильности. Также рассматриваются роль и перспективы государственной политики, коммерческих банков и частных стартапов в развитии экосистемы финтеха. В исследовании используются системный, аналитический, сравнительный, синтезирующий и статистический методы анализа. Анализируются ежегодные отчеты Центрального банка, стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030», а также достоверные источники, такие как UzDaily. На эмпирической основе изучается состояние внедрения финансовых технологий в стране, тенденции развития платежных систем и их влияние на экономическую среду.

Ключевые слова: стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030», цифровые финансовые технологии (финтех), экосистема финтеха, финтех-стартапы, цифровая инфраструктура, платежные системы, информационная безопасность, финансовая стабильность.

Abstract: This article examines the currently rapidly developing digital financial technologies and their significant impact on the economy of Uzbekistan and their role in ensuring sustainable financial development. At the same time, the formation of the digital financial technologies (Fintech) system in Uzbekistan, its development stages and their impact on the country's economic growth and ensuring financial stability are analyzed. The role and prospects of state policy, commercial banks and private startups in the development of the fintech ecosystem are also considered. The study uses systematic, analytical, comparative, synthesis and statistical analysis methods. The annual reports of the Central Bank, the "Digital Uzbekistan - 2030" strategy, as well as reliable sources such as UzDaily are analyzed. The state of implementation of financial technologies in the country, the development trends of payment systems and their impact on the economic environment are studied on an empirical basis.

Keywords: "Digital Uzbekistan - 2030" strategy, digital financial technologies (Fintech), fintech ecosystem, fintech startups, digital infrastructure, payment systems, information security, financial stability.

Kirish. Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalariga chuqur kirib borayotgan bir paytda, moliya sektori ham bu jarayondan chetda qolmayapti. Raqamli moliyaviy texnologiyalar (Fintech) iqtisodiyotda yangi imkoniyatlar yaratib, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish, tranzaksiyalarni tezlashtirish va xarajatlarni kamaytirishda muhim o‘rin tutmoqda. Shunga qaramay, O‘zbekistonda fintech tizimi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, u bilan bog‘liq ayrim muammolar, jumladan, raqamli infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmagani, axborot xavfsizligi masalalari, hamda malakali kadrlar yetishmasligi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida moliyaviy sohada raqamli xizmatlarni kengaytirish, elektron to‘lov tizimlarini takomillashtirish va masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan. Ushbu jarayonlar natijasida fintech xizmatlari nafaqat iqtisodiy jarayonlarni soddalashtirmoqda, balki moliyaviy tizimda shaffoflikni kuchaytirish, korrupsiya xavfini kamaytirish, aholi uchun qulay va tezkor to‘lov mexanizmlarini yaratish orqali barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Kelgusida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, axborot xavfsizligini mustahkamlash va malakali kadrlar tayyorlash fintech sohasining barqaror o‘shishini ta’minlaydi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida fintech startaplarini qo‘llab-quvvatlash hamda xalqaro to‘lov tizimlari bilan integratsiyani kengaytirish mamlakat iqtisodiy barqarorligini yanada mustahkamlaydi.

Mazkur maqolada O‘zbekistonda raqamli moliyaviy texnologiyalar rivojlanishining hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari tahlil

qilinadi. Shu bilan birga, fintech tizimining iqtisodiy o'sishga, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga va bank xizmatlarini modernizatsiya qilishga ko'rsatgan ta'siri o'rganiladi. Bundan asosiy maqsad — O'zbekistonda fintech ekotizimini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyatini aniqlash hamda uning milliy iqtisodiyotdagi barqarorlik va samaradorlikka qo'shgan hissasini baholash, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasidagi islohotlarning moliyaviy texnologiyalar sohasiga ta'sirini o'rganish, mavjud to'lov tizimlari va raqamli xizmatlarning samaradorligini aniqlash, shuningdek, kelgusida raqamli moliyaviy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar Tahlili Va Metodlar. Ushbu tadqiqotda raqamli moliyaviy texnologiyalarning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini chuqur o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqotda tizimli, analitik, taqqoslash, sintez va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Bu metodlar yordamida fintech ekotizimining tarkibiy qismlari — davlat siyosati, tijorat banklari, to'lov tizimlari va startaplarning o'zaro bog'liqligi o'rganildi. O'zbekiston Markaziy banki, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasidagi ma'lumotlar tahlil qilindi. O'zbekistonning fintech tizimi Markaziy Osiyo mamlakatlar tajribasi bilan taqqoslandi, bu esa rivojlanish bosqichlari va muammolarni aniqlash imkonini beradi. To'lov tizimlarining o'sish dinamikasi, elektron xizmatlardan foydalanuvchilar soni va raqamli tranzaksiyalar hajmi kabi ko'rsatkichlar statistik jihatdan tahlil qilindi.



Tadqiqotning ma'lumot manbalari sifatida Markaziy bankning yillik hisobotlari, UzDaily axborot portali, CBU.uz rasmiy sahifasi, xalqaro moliya institutlari hisobotlari hamda ilgari va yaqin kunlarda o'tkazib kelinayotgan ilmiy tadqiqotlar ma'lumotlaridan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuvlar asosida O'zbekistonda fintech rivojlanishining iqtisodiy barqarorlikka ta'siri empirik jihatdan o'rganildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hozirgi kunda moliyaviy texnologiyalar har bir mamlakatda yuksak darajada rivojlanmoqda. Shu jumladan, O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda ham raqamli moliyaviy texnologiyalar katta ahamiyat kasb etadi. Bu texnologiyalarni loyihalash, ishlab chiqish, tajribadan o'tkazish va joriy etishda nafaqat davlat, shu bilan birgalikda tijorat banklari va innovatsion startaplar ham o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Dastlabki raqamli moliyaviy texnologiyalarga asoslangan moliyaviy xizmatlar 2018-yildan joriy etila boshlangan bo'lsa-da, bu paytda kam sonli aholi bu xizmatlardan foydalana olishgan [1]. Pandemiya davriga kelib, fintech xizmatlariga bo'lgan talab oshgan va 2020-yilda banklar "instant to'lov tizimlari"ni ishga tushirdi, bu orqali foydalanuvchilar mobil ilovalar yoki onlayn bank xizmatlari orqali tezkor tranzaksiyalar qila boshladi. [2] 2021-2022 yillarga kelib, raqamli to'lovlar va QR-kod asosida operatsiyalar sezilarli darajada o'sdi.

Masalan, QR-online tizimlari orqali tranzaksiyalar o'sish sur'ati yiliga o'rtacha **119%** bo'lgan. Ushbu davr mobaynida umumiy qiymat taxminan 1500% ga oshdi [1].



QR-onlayn tizimi orqali operatsiyalar, Manba: Fintech Market Uzbekistan, Mastercard, 2023 yil dekabr


1- rasm. QR-onlayn tizimi orqali operatsiyalar, manba: Fintech Market Uzbekistan, Mastercard, 2023 yil dekabr

Masofaviy raqamli moliyaviy texnologiyalar mijozga faqat bank xizmatlarini ko'rsatishda emas, balki mijozning vaqt sarfi va moliyaviy xarajatlarini minimallashtirishda maksimal darajada qulaylikka ega hisoblanadi. Masofadan xizmat ko'rsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga ko'ra ikki turga bo'lish mumkin:

- informatsion;
- tranzaksion.

Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishga yo'naltirilgan bo'lsa, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi [4].

Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni
(turlari bo'yicha)
1 yanvar holatiga



2-rasm Markaziy bank ma'lumotiga ko'ra 2014-2022 masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni [4]

Markaziy Bank bergan ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil fevral oyi boshi holati bo'yicha 32,6 million kishi masofaviy bank xizmati foydalanuvchilariga

aylanishgan [3]. Markaziy bankning UzDaily taqdim etgan taqdimotiga ko'ra, 2018-yildan 2025-yilgacha fintech kompaniyalar soni 24 tadan **103 taga** yetgan [5] va bu raqamli moliyaviy texnologiyalar O'zbekistonda sezilarli darajada rivojlanib kelayotganiga misol bo'la oladi. O'zbekiston milliy statistika qo'mitasi manbasiga ko'ra 2024-yil O'zbekistonda moliyaviy xizmatlar hajmi 135,5 trln so'mga yetgan, bu 2023- yilga nisbatan 20,6 % oshganini ko'rsatadi [6].

Markaziy bank tomonidan joriy etilgan **Instant to'lov tizimi** mamlakatda real vaqt rejimidagi to'lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi muhim infratuzilma hisoblanadi. Ushbu tizim orqali aholining kundalik to'lovlari tez, xavfsiz va qulay tarzda amalga oshirilib kelinmoqda. Natijada, naqd pulsiz to'lovlar ulushi sezilarli darajada ortib, aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi kengaydi.

Mazkur tizimning faol joriy etilishi iqtisodiyotda to'lov aylanmasining oshishiga, bank xizmatlarining raqamlashtirilishiga va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Instant to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmining yil sayin ortib borayotgani ushbu yo'nalishda ishonch va qulaylik darajasining yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

3-rasm Markaziy bankning Instant to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha tahliliy ma'lumotlar [7]

№	Bank nomi	Banklar tomonidan 2025 yil sentyabr oyidagi operatsiyalar	
		soni	miqdori
1	Central bank	651 737	12 489 072 374 357
2	National bank	386 063	16 641 118 239 145
3	Uzbek Industrial and Construction Bank	278 553	16 705 229 572 819
4	Agrobank	20 715	2 757 378 187 764
5	Mikrokreditbank	86 392	1 764 282 582 983
6	Xalq banki	297 256	6 496 465 777 284
8	Business development bank	1 200 847	4 151 882 519 435
9	Turonbank	9 920	392 594 481 063
10	Hamkorbank	270 519	6 345 027 730 007
11	Asaka bank	73 321	5 572 448 976 860
12	Ipak Yuli banki	28 216	1 920 996 395 321
14	Trastbank	125 645	5 510 763 026 116
15	Aloqabank	809 036	4 204 086 922 641
16	Ipoteka-bank	30 319	1 418 503 599 104
17	KDB Bank Uzbekiston	1 981	193 736 347 699
19	Universal bank	47 497	1 741 917 384 759
20	Kapitalbank	39 089	9 541 660 833 541
23	Invest Finance bank	7 833	731 544 923 355

24	Asia Alliance bank	271 959	5 867 416 284 964
25	Orient Finans bank	103 139	5 264 237 396 810
26	Madad Invest bank	548	18 385 832 076
27	AVO bank		
28	Poytaxt bank	3 960	218 658 839 345
30	TBC bank	508 863	2 804 164 395 937
31	Anor bank	6 953	485 721 863 994
32	Uzum Bank	183 905	342 812 305 886
37	Central securities depository		
Total		5 444 266	113 580 106 793 262

Yillar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi (yanvar-dekabr):



4-rasm 2025- yil 5-fevral stat.uz manbasiga ko`ra Respublikada moliyaviy xizmatlar hajmi [6]

Davlat fintech sohasini tartibga solish uchun so'nggi yillarda qator qonun va qarorlarni qabul qildi. **"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi** (Prezident qarori PQ-6079, 2020-yil 5-oktabr) — raqamli iqtisodiyot va fintech xizmatlarini joriy etishning asosiy yo'nalishlarini belgilab bergan bo'lsa, **"To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonun** (2019-yil 1-noyabrda kuchga kirgan) — to'lov tizimlari, elektron pul aylanmasi va to'lov tashkilotlari faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga soldi. Davlat **Uzcard, HUMO, E-KYC, E-Gov**, va **"Yagona identifikatsiya tizimi (One ID)"** kabi platformalarni yo'lga qo'yib, fintech xizmatlari uchun texnik asos yaratdi. 2019-yilda ishga tushirilgan **HUMO to'lov tizimi** milliy raqamli to'lov infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi bo'ldi. **Elektron hukumat tizimi (E-Gov)** orqali to'lov tizimlari davlat xizmatlari bilan integratsiya qilindi masalan, soliq, jarima, kommunal to'lovlarni amalga oshirish qulayligi yaratildi.

Fintech xizmatlari bank tizimi samaradorligini oshirib, iqtisodiyotda pul aylanishini tezlashtirdi va to'lov tizimlari uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi, operatsiyalarni "tezkor" qildi, likvidlik boshqaruvini yaxshilaydi,

naqd pulga bo'lgan ehtiyojni pasaytiradi va iqtisodiy subyektlarni rasmiy moliyaviy oqimlarga jalb qilib, pul aylanish tezligini oshirdi. Bu jarayonlar O'zbekistonda markaziy bank va xususiy provayderlar tomonidan olib borilgan islohotlar va yangi tizimlar yordamida tartibga solinadi. mazkur chora-tadbirlarning har biri mamlakat iqtisodiyotiga muayyan ta'sir ko'rsatdi. Fintech sohasi nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga, balki moliyaviy barqarorlikni mustahkamlovchi omilga aylandi. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmagani, axborot xavfsizligi bilan bog'liq muammolar hamda malakali kadrlar yetishmasligi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu omillar fintech tizimining to'liq potensialini ro'yobga chiqarishda to'siq bo'lmoqda. Shu sababli, ushbu sohada davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, texnologik infratuzilmani kengaytirish va kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish zarur.

Hududiy taqqoslash natijasida shuni ko'rish ham mumkinki, Qozog'iston fintech sohasida Markaziy Osiyoda yetakchi hisoblanadi. 2018–2024-yillar oralig'ida bu davlatda fintech startaplar soni 50 tadan 200 tagacha oshgan, 62% 15 dan 64 yoshgacha bo'lgan yoshlar, texnologiyani yaxshi biladigan aholi raqamli to'lov usullarini tobora ko'proq o'zlashtirmoqda. Bu ko'rsatkichlar Qozog'istonda raqamli infratuzilma va innovatsion moliyaviy xizmatlar samarali rivojlanayotganidan dalolat beradi [8].

Qirg'izistonda fintech bozori hali shakllanish bosqichida bo'lsada, KPMG ma'lumotiga ko'ra, 2015–2019-yillar davomida elektron hamyonlar soni 276 mingdan 1,9 milliongacha oshgan [9]. Bu esa aholining raqamli to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq, infratuzilma va texnologik quvvat jihatidan bu davlat hali Qozog'iston va O'zbekistondan orqada.

Tojikistonda esa 2024-yilda elektron hamyonlar soni 12,1 millionga yetib, o'tgan yilga nisbatan 38,6 % o'sish kuzatilgan [10]. Shuningdek, Tojikiston Milliy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning birinchi yarmida 56,3 million naqd pulsiz tranzaksiya amalga oshirilgan [11]. Bu ko'rsatkichlar fintech sohasining tez rivojlanayotganini bildiradi, biroq mamlakatda texnik infratuzilma va huquqiy muhit hali to'liq shakllanmagan.

Umuman olganda, O'zbekiston fintech rivojlanish sur'atlari bo'yicha Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Biroq, raqamli infratuzilmani mustahkamlash, kiberxavfsizlikni kuchaytirish va malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rilsa, mamlakat fintech sohasida Markaziy Osiyo mintaqasidagi yetakchi markazga aylanish salohiyatiga ega.

XULOSA. O'zbekiston Respublikasida raqamli moliyaviy texnologiyalar tizimi so'nggi yillarda iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish va ularning qulayligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Fintech sektori mamlakatda nafaqat to'lov tizimlarini raqamlashtirish, balki iqtisodiy faollikni oshirish, biznes jarayonlarini soddalashtirish va aholi uchun yangi moliyaviy imkoniyatlar yaratish yo'nalishida ham salmoqli natijalarni namoyon etmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli moliyaviy texnologiyalar iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish, bank xizmatlari qamrovini kengaytirish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omilga aylanmoqda. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani va malakali kadrlar yetishmasligi sohada dolzarb masalalar sifatida saqlanib qolmoqda.

Mintaqaviy tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qozog'iston fintech rivojlanish darajasi bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinda turib, davlat tomonidan yaratilgan qulay muhit va investitsiyalar oqimi bu sohaning tez rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Qirg'iziston va Tojikiston esa mazkur yo'nalishda endigina shakllanish bosqichida bo'lib, ularning asosiy sa'y-harakatlari elektron to'lov tizimlarini kengaytirish va bank xizmatlarini raqamlashtirishga qaratilgan.

O'zbekiston ushbu davlatlar bilan solishtirilganda, fintech ekotizimini rivojlantirishda barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Shu bois, raqamli moliyaviy xizmatlar sohasida xalqaro tajribani o'rganish, innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash, investitsion muhitni yaxshilash hamda huquqiy-me'yoriy bazani yanada takomillashtirish orqali sohaning raqobatbardoshligini oshirish zarur. Natijada, bu jarayon O'zbekistonning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini jadallashtirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fintechnews. Fintech on the rise in Uzbekistan: A short overview [Elektron resurs]. – Rejim kirish: <https://fintechnews.ch/fintech/fintech-on-the-rise-in-uzbekistan-a-short-overview/69023/>
2. Trend News Agency. Uzbekistan's digital financial technologies continue to expand [Elektron resurs]. – Rejim kirish: <https://www.trend.az/casia/uzbekistan/3703322.html>
3. Trend News Agency. Uzbekistan developing measures to boost fintech sector [Elektron resurs]. – Rejim kirish: <https://www.trend.az/casia/uzbekistan/3719266.html>
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Remote banking services [Elektron resurs]. – Rejim kirish: <https://cbu.uz/uz/payment-systems/remote-banking-services/>
5. UzDaily. Moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish choralari muhokama qilindi [Elektron resurs]. – Rejim kirish: <https://www.uzdaily.uz/uz/moliyaviy-texnologiyalarni-rivojlantirish-choralari-muhokama-qilindi>
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Respublikada moliyaviy xizmatlar hajmi 135,5 trln so'mga yetdi [Elektron resurs]. – Rejim kirish:
7. Markaziy banki. **Analytical information about transactions through Instant payment system of Central Bank** [Elektron resurs]. – Rejim kirish:
8. The Astana Times. Number of fintech startups quadruple in Kazakhstan as market booming [Elektron resurs]. – Rejim kirish:
9. Zephyrnet. Kyrgyzstan wakes up to fintech potential [Elektron resurs]. – Rejim kirish:
10. Trend News Agency. Fintech development in Tajikistan gaining attention [Elektron resurs]. – Rejim kirish: <https://www.trend.az/casia/tajikistan/4009748.html>
11. Trend News Agency. Tajikistan working on national digital finance strategy [Elektron resurs]. – Rejim kirish: